

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI TIBBIYOT TEXNIKUMLARIDA GURUH RAHBARLAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISH AHAMIYATI

DJumabayev Ergash Ataxanovich

Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'quv-tarbiyaviy ishlari

bo'yicha direktor o'rinbosari

Egamova Gulshan Anvar qizi

Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat

salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarida guruh rahbarining ish faoliyati tashkil qilish choralari va vazifalarni o'z ichiga oladi. Guruh rahbarlarining ish faoliyatini shakillantirishdagi muammolar va ularning ahamiyati talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim oluvchilar, Professional ta'lim, tadqiqot, taraqqiyot, ta'lim, tarbiya, baholash, vazifalar, o'quv dasturi, seminar, trening.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-197-sonli Qaroriga asosan tibbiyot kollejlari bazasida Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari tashkil etildi. Texnikum ta'lim-tarbiya jarayonida guruh rahbarlari faoliyatini tashkil etish muxim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot texnikumlarida guruh rahbarining ish faoliyati ko'plab mas'uliyatli vazifalarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy vazifalari va ularning ish faoliyatiquyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilar bilan ishlash:

Ta'lim oluvchilarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini ta'minlash va davomatni nazorat qilish.

Ular bilan yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazish, ularning muammolarini, ehtiyojlarini aniqlash va yechimlarini topish uchun ko'rsatmalar berish.

Ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonidagi va shaxsiy rivojlanishini kuzatib ularga motivatsiya berish.

2. Ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish:

Ta'lim oluvchilarning ta'lim dasturlari bilan ishlashini tashkil etish, amaliyotlar va uy vazifalarini nazorat qilish.

Ta'lim oluvchilar uchun turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.

Ta'lim oluvchilarni turli tanlovlar, musobaqalar va loyihalarda faol qatnashishga tayyorlash.

3. Texnikum ma'muriyati bilan hamkorlik qilish:

Texnikum ma'muriyati bilan guruh ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayoni va rivojlanishi to'g'risida muntazam hisobotlar taqdim etish.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan muntazam aloqa o'rnatish, ularni farzandlarining tibbiyot texnikumi hayotidagi ishtiroki haqida xabardor qilish.

4. Kasbiy rivojlanish:

Pedagogik mahoratni oshirish uchun seminarlar, kurslar va treninglarda qatnashish.

Yangi pedagogik usullarni, texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga joriy qilish.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va sohasidagi yangiliklar bilan tanishib borish.

5. Ijtimoiy-psixologik yordam:

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy va ijtimoiy muammolarini hal qilishga ko'maklashish.

Ta'lim oluvchilarga maslahat berish, ularga qiyin vaziyatlarda yordam berish.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ta'lim oluvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish.

6. Texnikumda ichki va tashqi hamkorlik:

Boshqa pedagoglar va rahbar xodimlar bilan ishlash, guruh faoliyatlarini ta'lim dasturlariga muvofiq tashkil etishda ular bilan hamkorlik qilish.

Mahalliy tashkilotlar, tibbiy profilaktika muassasalari va ish beruvchilar bilan aloqalar o'rnatish.

Bu vazifalarning bajarilishi ta'lim oluvchilarining ta'limiy, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos bo'ladi. Guruh rahbari shuningdek, texnikumning ichki-tartib qoidalarini ta'lim oluvchilarga tushuntiradi, ularga rioya qilinishini ta'minlaydi va o'quv-tarbiya jarayonining samarali kechishiga hissa qo'shadi.

Guruh rahbarining ish faoliyatini shakllantirish bir necha jarayonlardan iborat, quyida ularni ko'ramiz:

Maqsad va vazifalarni belgilash: Guruh rahbari tibbiyot texnikumidagi maqsad va vazifalarni belgilash, ta'lim oluvchilarga yo'nalish beradigan rejasi va dasturlarini tuzish.

Reja va dastur tuzish: Guruh rahbari ta'lim rejasi, manaviyat soatlarni rejasini tuzish, ta'lim oluvchilarning hayotini va bilim darajasini ko'zda tutib, ularga mos bo'lgan o'quv-uslubiy usullarni qo'llash.

Monitoring va baholash: Ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonini tashkil qilishda, ko'nikma va bilimlarini vaqtda nazorat qilishni o'rganish. Baholash tizimiga mos ravishda ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligini rag'batlantirish.

Muhokama va maslahatlar: Guruh rahbari ta'lim oluvchilar bilan yuqori darajada aloqada bo'lish, ularning fikrlarini, ko'nikmalarni va muxim o'zgarishlarni muhokama qilib olish. Ta'lim oluvchilarga maslahatlar, muammolarni yechishda yordam berish.

Hamkorlik va kichik guruhlar ishi: Guruh rahbari ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar, ota-ona va hamkorlari bilan yaxshi hamkorlikda ishlashni o'rganish. Ularni qo'llab-quvvatlash, pedagog xodimlar va boshqalar bilan hamkorlik qilish.

Yangiliklar va rivojlanish: Guruh rahbari o'zining ilmiy va pedagogik bilimlarini yangilash uchun o'rganish va rivojlanish choralarini ko'rish. Ta'lim berish metodikasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, kasbiy rivojlanishga yordam berish.

O'quv jarayonida ijro etish: O'quv mashg'ulotlarda va tashkil etiladigan tadbirlarda ish bilan bog'liq joylarni yaratish, ta'lim oluvchilarni amaliyotdan foydalantirish.

Davom etuvchi taraqqiyot: Ta'lim oluvchilarning o'zlarini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarga ega muhit yaratish. Ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, tibbiy darajasini oshirish.

Yangi bilimlarni egallash: Guruh rahbari o'z bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish uchun davomli ravishda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, ilmiy konferentsiyalarda, seminarlarda ishtirok etish va tibbiy amaliy bilimlarini mustaxkamlab borish.

Bu jihatlar guruh rahbarining ish faoliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhning tarbiyaviy va ta'limiy rivojlanishida taraqqiyotga qarab intilish bu o'z vazifalarning samarali bajarilishiga bog'liqdir.

Guruh rahbari ishini rejalashtirishda texnikumning umumiy ish rejasidan kelib chiqib aniq guruh rejasini ta'lim yo'nalish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlarni xisobga olish juda muximdir. Har bir texnikumda yillik tarbiyaviy ish rejasidan kelib chiqqan holda guruh rahbari o'z rejasini ishlab chiqib o'quv yili boshlangunga qadar tasdiqlatib olib ta'lim jarajoniga tadbiq etish talab qilinadi. Bunda ta'lim oluvchilarning yoshi, ruxiy, fiziologik xususiyatlariga mos keladigan tarbiyaviy chora-tadbirlar rejaga kiritish zarur.

Amalda guruh raxbarining kiritiladigan tarbiyaviy ishlari xilma-xildir. Mamlakatimizning turli tumanlarida, shaxar va qishloqlarda joylashgan tibbiyot

texnikumlarining o‘ziga xos tarbiyaviy an‘analarini xisobga olmasak, tarbiyaviy ish rejalariga kiritiladigan masalalar bir-biriga juda o‘xshab ketadi. Guruxning mufassal pedagogik tavsiyanomasida aniq ko‘rsatilgan tadbiriy choralar qaysi tartibda berilishida qaramasdan tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari doimiyligicha qoladi.

Xulosa:

Guruh rahbari o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi va ta'lim oluvchilarning kasbiy va jismoniy taraqqiyotini oshirishga harakat qiladi. Uning faoliyatining natijasida Ta'lim oluvchilarlar tibbiyot texnikumi davlat standartlariga muvofiq rivojlantiriladi. Qisqa qilib aytganda o'quvchilarning erishayotgan yutuqlariga o'z hissalarini qo'shish uchun guruh rahbarlari ham o'z o'quvchilarini qo'llab quvvatlashi kerak. Rahbarning hayoti, albatta, shakar emas. U ma'muriyat oldida o'quv guruhining manfaatlarini himoya qilishi kerak. U shunchaki talaba emas, kerak bo'lsa, hech qanday talab qo'yishdan qo'rqmaydigan odam bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida sog‘liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-197-sonli Qarori
3. G. Shodmonova, N.D Ibragimova, R.Xojimammedova. «Tarbiyaviy ishlar Metodikasi» (Metodik qo'llanma)
4. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti. B.X.Hodjaev.
5. Shodmonova SH. Xoshimova M. Fayzullayeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati. O‘quv qo‘llanmasi. Toshkent 2007